

MATN TARKIBIY QISMLARINI BOG'LASHDA TAKRORNING O'RNI VA AHAMIYATI

Umida Baxtiyarovna Majidova

Toshkent shahar Uchtepa tumani 283-maktab ona tili va adabiyoti
fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bizga ma'lumki matn kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik. Gaplar o'zaro turli bog'lovchi vositalar yordamida birikadi. Ularga tarkoriy bo'laklar, olmoshlar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari modal so'zlar kabi turli leksik – grammatik birliklar kiradi. Bundan tashqari, gaplar o'zaro bir-biriga bog'lanishi uchun turli xildagi birliklar talab etiladi. Ushbu maqolada, matn tarkibiy qismlarini bog'lashda takrorning o'rni va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: mazmuniy yaqinlik, kontakt aloqa, distant aloqa, zanjirli aloqa, intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiyl ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati, takror so'zlar.